

## Yana lab ohangi

(til va imlo kanferensiyasi munosabati bilan)

Til ustida qalam yuritgan yozuvchilar turlik mavzular orolarida kunning yangi masalasi bo'lg'on "lab ohani" ustida ham ozdir – ko'bdir ohan qilmasdan o'tolmas xolg'a keldilar.

O'rtadagi ba'zi anglashilmaslik sababida bizga ham ikkinchi da'fa yozishg'o to'g'ri keldi. O'rtag'a otilg'on fikrlar, yurib turgon muboxasalarning rux va tushlariga ko'ra lab ohani masalasi ham "cho'zg'ilar masalasi" kabi chigallashish yo'liga to'g'ri ketmaktadir: "asosda bir fikrga kelmay turib tafarruotg'a o'tib ikir-chikir qoidalar tuzmak, buning ustiga mubohasada "mug'olata" lar ila bir-birining so'zini anglamaslikdan kelish kabi xollar u chigallikni yaratuvchi bosh omillardirlar.

Lab ohani rioya qilinmasin deganlardan Yo'ldoshuf gramatikadagi osonliqning'ina asos tutdi. Muning ila u o'rtoq masalaning asosi sabablaridan birini tutib olg'on bo'ladi.

Elbekda o'z asosini o'zbek omma tilining xozirg'i tusi va o'z xususiyatlaridan oladi. Bu nuqtada ozda bo'lsa birgan izoxini u o'rtoqning xaqiqatg'a yaqinlashqonini ko'rsatadi. Lokin ikkinchi tarafidan eski bir adib "Lutfiy" ning birgina so'zini misol keturub tilning an'nasi va ta'rixig'a lab ohanig'a ko'brak rioya qilg'on Chig'atoy adabiy bo'lg'onig'a ko'ra uning asarlarida lab ohani anchagina ko'riladi.

Lab ohanig'a rioya qilinsin deganlardan Qayum Ramazon o'z asosini torixdan va eski chig'atoychadan olg'oni ko'riladi. Lokin u o'rtoq bu asosda hech bir turlik izoxotni keraksinmasindan lab ohangini bor faraz qilib uni sistemaga qo'ymoq uchun masalaning tafarruotig'a sho'ng'ib ketadi.

Bizcha masalaning tafarruotini bir tarafga qo'ya turib eng avval uning aosi ustida so'z bo'lishi kerak.

"Masalaga umum turkiy tillarning tuslariga qorob va o'zbekchanning eski qilosiq va aristukrotiy tiliga qorob lab ohanig'a rioya qilish kerakmi?" Yoki o'zbek omma tilining boshqa turkiy tillardan va o'zbekning qilosiq adabiy tilidan ayirgan xususiyatlarig'a qorob lab ohanig'a rioya qilmasliq kerakmi?

So'ngra o'zbek omma tilida lab ohanining yo'qolo kelganiga illat nima?

Uni qabul qilmoq va qilmasliqning tilga nisabati qoloy ya'ni qoyu biri osonliq va qulayliq beradi?

Boshda bu masalalarni xal qilib olish kerak bu asoslarda bir fikrga kelingandan keyin tafarruot masalasi o'z o'zicha xal bo'lo boradi va balkida tafarruotg'a xojat ham qolmoydi.

Avvalgi maqolada "lab ohanining uyg'urcha, qozoqcha, chig'atoycha kabi tillardagi xolini, o'zbek omma tilining u tillardan ayrilib lab ohanig'a rioya

qilmog'onini va bu xolning bir takomil bo'lg'onini" bir daraja izox etkan edim: bu maqolada o'zbekchagagina oid bo'lg'on muddaolarni kengaytirib bermak o'tmakchi bo'laman.

Piransip kerak:

Qondoy bir masala bo'lsin uning asosi yechilmaguncha va unda belgili bir sababga suyalib piransip tutilmaguncha tafarruotini qulayliq ila xal qilish mumkin emas. Lab ohani masalasida ham asosdan ko'z yumib tafarruotg'a o'ta va erish asil masalani chigallashdirish va qiyinliq ustiga qiyinliq yaratishdan boshqa natija bermasa kerak.

Lab ohani uchun asos va pironisining ikki turlik bo'lishi mumkin:

1-"Til ustida qabul qiling'on yangi shiorlardan ko'z yumib o'zbekchaning an'anasig'a va eski adabiy tusiga qorob va boshqa turkiy tillardagi kayfiyatga e'tibor qilib va turlik qiyinliqlarg'a qoromasdan lab ohanini bor deyish"dir.

Qayum Ramazon oning "Qutudg'u bilig kitobida va Chig'atoy adabiy tilida bor" deb dalil keturish bu asosning "an'anag'a bog'lonish" qismini e'tiborg'a olg'onini ko'rsatadi.

Amir Najibning "qo'shni turkiy tillarni tekshirish mumkin" deyish va lab ohani uchun qoidalar tuzganda "Yoqut va oltoy" tillarini misol keturish bu asosning "turkiy tillarnitubdan e'tiborg'a olish" qismini ko'zda tutqonini ko'rsatadi.

Asosan bu o'rtoq misol uchungina ketirilgan she'r parchalaridan "munojot" mavhumini ayirmaslik va "firqo, foqot, tamom" kabi xolis arabcha bo'lg'on so'zlarni turkiy so'zlardan sanarlik darajada til masalasiga yuzaki qoroydi.

2-"O'zbekchaning turlik davrlarni o'tkarib so'ng olg'on tusi va turlik tasirot ila boshqa turkiy tillardan ayrilib paydo qilg'on xususiyatlarini e'tiborg'a olib lab ohangig'a rioya qilmasliq tarafini tutish"dir.

Yo'ldoshuf va Elbeklarning ayrim - ayrim tusda bo'lsada bu asosqa suyalganlarini aytib o'tkan edim. Avvalgi maqolada ham aytganim kabi meningda suyalgan asosim budir.

Birinchi asosg'a suyalishni mafkuraviy va xayoliy tasurot ostida qolish tusida izox etmak mumkindir. O'zbekchaning o'z xususiyatlarig'a boqmosdan uni turli sabablar ila bir birlarindan boshqoloshqon tillar ila birga ko'rib asos qurishning ilmiy bir yo'l emasligini va osoniyot qoidalarig'a rioyasizlik ekanini aytuvga jur'at qila olamiz.

Ilmiy yo'lda tushinilmagan bir fikrning qiyinliqlar yaratishini va buxron - kirizis tug'dirishini aytuvga ham xojat yo'q. Halitdan ya'ni masala asosan qabul bo'lmasdan burun lab ohanining tafarruot qoidalari ustida Qayum Ramazon va Amir Najiblarning orolarida ixtilof tug'ilishi u qiyinliqlarning birinchi asaridir. Xol shunday ketaversa "o'zakda bo'lsun, yo'q, qo'shimchalarg'a ham o'tsun, bu

xarfning tasiri ila bo'ladi, uning tasiri ila bo'lmaydi" kabi ikir-chikir qoidalarining yana ko'ib tug'ilishlarini kutish uchun hozirliq ko'rib turmagimiz kerak bo'ladi. Bu xoldan tug'iluvchi qiyinliqlar qoshlarida ("qul, kul" lardagi o'trularida yuqori xarfning aytilish tasiridan tug'ilg'on kichik bir farqni e'tiborg'a olib ayrim xarflar yaratibda "qosh, qarash" oroloyidag'i ustunlarning ochiq farqlarig'a e'tibor qilmoyin yolg'uz bir xarf "a" ila ko'rsatish) kabi imlo qoidasidan tug'ilg'on qiyinliqlar ham kichik bo'lib qoladilar.

Ikkinchi asosimiz bo'lg'on "o'zbek omma tilining o'z xususiyatlaridog'ina ko'rish" masalasini quyida izox etkanimizda birinchi asosning zararlari yana ham ochiq ko'rinib qolsalar kerak.

O'zbekchada lab ohanining yo'qlig'i, bir xususiyatdir.

Har bir tilda to ibtidodan boshlab turlik sabablarning tasirlari ila turlik o'zgarishlarning bo'la kelganlari ilmiy xaqiqatlardandir: "bir yurtidan boshqa bir yurtga ko'chib boruv (muhojir) turlik sharoit ostida yashagan xalqlarning orolarida paydo bo'la kelgan ijtimoiy aloqalar, bir ijtimoiy aloqaning kesilib yangi bir ijtimoiy aloqaning boylonishi" kabi ulug'-ulug' kayfiyatlar turmishlarda o'zgarish yaratkanlari kabi tillarda ham o'zgarishlar yarata kelganlar. Ayniqsa ko'chma xolda yashagan xalqlarda bu xol juda ham kuchli tusda bo'la kelgan. Ko'chma xalq tillaridan ko'ib tillar bu shaklda yangi oqim paydo qilib ochilmoqqa va takomil etmakka boshlog'onlar. Orodan asrlar o'tkan sari boshda bir bo'lg'on tillar bir-birlaridan katta farqlar ila ayrila borir va yangi xususiyatlarg'a ega bo'lurlar. Bu kayfiyatni o'zbek tilining takomilida juda ham ochiq xolda ko'ramiz:

O'zbeklar birinchi davrlarida kerak turmish va kerak tilda qozoqlarg'a yaqin bir xolda bo'lg'onlar. Ko'pchilik ila ko'chma xolda yashaganlar. Ikkinchi davrlarida qozoqlardan ayrilib o'troq bo'lg'on chig'atoylilar ila yaqindan aloqag'a boshlar va aralasharlar. Muning ila o'zbeklarning turmushlari kabi tillarida va adabiyotlarida ham yangi oqim paydo bo'ladi. Eskida qozoqchag'a yaqin turg'on til "mavjit va maxal" ning o'zgarish ila qozoqchadan uzoqlasha boradi. Ayni zamonda chig'atoycha ila ham tamom birlashalmaydi. Ayrim bir oqim ila turlik xususiyatlar paydo qilib ochila boradi. Buning ila o'zbekcha va boshqa turli tillar orolorida kerak tovush, kerak lug'at va kerak ohan e'tibori ila ayrimlar paydo bo'ladi.

Yuqorida izox etilgan kayfiyat tasiri ila o'zbekchada paydo bo'lg'on xususiyatlardan birida "lab ohani qonunining yuqola borishi va boshqa turkiy tillarda ancha ko'pchilik xolda qolg'on u qonunning o'zbekchada (omma tilida) juda kuchsiz xolda bo'lishi" dir.

Bu yerda bir nuqtoning yanglish anglashilishi mumkin: "o'zbeklar chig'atoylilardan tasirlangan bo'lsalar lab ohani qonunini yana saqlab qoluvlari kerak edi. Chunki chig'atoylilarda bu qonun bor edi" demak mumkin. Lokin bu

e'tirozga bu yerda o'rin yo'q. Chunki tildagi o'zgarishlarga belgili nuqtalarda bo'lg'on tasirlarning sabab bo'lishlari har bir nuqtada bo'lavermaydilar: ba'zi o'zgarishlar tilda paydo bo'lg'on yangi oqimning umumiy ruxidan tug'ilg'on bo'lurlar. Va eskida qondoy bo'lsun ichki va tabiiy o'zgarishdan tug'ilg'on bir sabab ila ham paydo bo'ladilar.

So'ngra ular ochilg'on yangi oqimda kuch ila boradilar.

O'zbek omma tilida lab ohanining yo'qola borishi so'ngg'i shakil ila o'sib kelgan. (Bu kayfiyatning Axmad Yassaviy zamonlari kabi eski zamonda boshlong'onini o'tmish maqolada izox etkan edik)

Albatta o'tushning qorong'uliqlari orasida paydo bo'lg'on bir kayfiyatning chin sababini ochiq izox etmak mumkin emas. Asosan unchalik kaptikovga ham xojat yo'q. Voqea va fakt nima bo'lsa uni sistim bermak va unga qorobgina yurmak qonunchi va qoidachilarga bilgili vazifadir.

Mana tilning o'z xususiyatlarida saqlamoq va ommalashdirmoq asosiy tutilganda albatta bu izox etilgan ayrimlarga diqqat qilish va ularni bir birlari ila aralashdirmaslik kerak bo'ladi.

Shu xolda lab ohani to'g'risida Qayum Ramazonning an'anaga so'ylashini va amir Najibning qo'shni turkiy tillar ila aralashdirib ko'rmak istashini bu ilmiy xaqiqatga suyalib "yanglish" deyuvga jasorat qila olaman.

### **Lab ohanining o'zbekchada yo'qliq darajasi**

Endi "o'zbek omma tilida lab ohani qoysi darajada? Uning yo'qola borishi tilda bir takomilmidir? Uning yo'qlig'i til qoidalariga qulayliq beradimi?" masalalari ustuda to'qtolomiz:

Takrorlab turg'on kabi o'zbek omma tilida lab ohani yo'q darajadadir. Ba'zi ozliq tashkil qilg'on shevalardagi mushtarak xolni ajratib turib boshqa qoysi bir shevaga qorolsa lab ohaniga rioya qiling'on so'zlar "birlab" sanalsalar rioya qilinmog'onlar "o'nlab" sanaladilar. Muni har kim o'z tilida va atrofida ilarning so'zlarida tajriba qila oladi. Avvalgi maqolada tosh ukrug' va Farg'onadagi nisbatlarni bir daraja aytib o'tkan edim. Bu yerda ularga yana bir ilova qilmoqchi bo'laman:

Tasodif meni bir necha kun avval turanvoyda Kattaqo'rg'on atrofidan bo'lg'onlari bilingan bir necha kishining so'zlariga quloq mehmoni qildi – ikki istansa buyi so'zlashlarini tinglaganim xolda tajjubki so'zlari orasida yolg'uz "sug'un" so'zidan boshqa biror so'zni lab ohaniga rioya qilib so'zlaganlarini eshitmadim. "To'g'ri, qo'yuq, uyyida, so'zim" tusida so'zlardilar.

Shu xolda ayta bilamiz:

"O'zbek omma tilida lab ohani qonuni yo'q darajada ozolg'onidir"

### **Lab ohanining yo'qlig'i takomildir**

Lab ohanining yoʻqligʻining tilda takomil asari boʻlgʻonida soʻz boʻluvga ham oʻrin yoʻq: har bir tilda boʻlgʻoni kabi oʻzbekchada ham soʻzlarning qisqolo kelgani ochiq koʻriladi. Masalan: “kelgan ermas, borgʻon ermas, oʻlturubturur” kabi sanoqsiz soʻzlarning “kelganmas, borgʻonmish, oʻtiribti” tusinda qisqorib qolgʻonlarining takomil asari boʻlgʻonlariga inkor yoʻq. Bu xolning takomil boʻlib qabul boʻlishiga illat albatta soʻzlashdagi yengillikdir. Munga oʻxshash “oʻturub, yurub, soʻzum, yuzum, koʻzum, oʻzum” kabi sonsiz soʻzlarning “oʻtirib, yurib, soʻzim, oʻzim” boʻlib qolishlari albatta soʻzlashdagi yengillikdan ilgari kelgandir. Munda ham inkor boʻlmasa kerak. Modomiki bu xol yengillikdir, uning takomil asari boʻlgʻonida shubha yoʻqdir.

Muning ustiga lab ohanining yoʻqligʻi eshituvda ham quloqqa yumshoqliq ketiradi. Bu toʻgʻrida bir tajriba qilishayliq:

Soʻzimiz orasida koʻb keladigan baʼzi jummalarni olayliq. Masalan “yuzumni yuvdum, qoʻlinga quydim, koʻzimga suqtim” deyuvdan quloqqa allaqanday ogʻirliq beradi. Agar ohanni Tosh oʻrtoqning xikoyasida qilgʻoni kabi qoʻshimchalarga ham oʻtkazib “yuzumnu, koʻzumning” tusida soʻzlashsa u ogʻirliq yana ham orto tushadi.

Men turkiy tillardan hech birini bilmagan bir kishiga baʼzi soʻzlarni lab ohaniga rioya qilib turib tinglatdim. (Tabiiy suʼniy bir yoʻl ila emas).

Tinglagan kishi “tilingizda muncha “u” koʻb, soʻzlarda bir turlilik quloqqa va ogʻizga ogʻirdir” eʼtirozini qilurda tushinib oʻlturmadi.

Shuni ham koʻzda tutmoq kerakki “lab ohanining yoʻqligʻi soʻzga yengillik va eshituvga yumshoqliq beradi” deb uni yangidan yaratmakchi emasmiz. Balki tilning oʻzida paydo boʻlib qolgʻon bir kayfiyatning yaxshi tarafini va illatini koʻrsatmakchimiz.

Qoidaga ham yengillik beradi.

Oʻzbek omma tilida lab ohanining yoʻqliqqa toʻgʻri yurganini javrab yuramiz. Albatta qoida tuzuvga ham shu nuqtadan qoroyimiz:

Tilda nima narsa oz boʻlsa unga qoroshli qoidalar ham albatta oz va yengil boʻladi. Aksincha qoysi narsa koʻb boʻlsa albatta unga teyishli qoidalar ham koʻb va ogʻir boʻladilar. Muning kabi lab ohanining yoʻqliq tarafi asos tutilsa unga teyishli koʻp qoidalar tuzuv extiyojidan qutulib qolamiz. Yoʻqliq tarafi olinsa “oʻnlarcha” ikir-chikir qoida tuzuv emas balki yolgʻuz ikkigina qoida ila birinchi extiyojini oʻtagan boʻlamiz. Masalan:

1-“uchun, oʻtru, ustun” kabi bir necha maʼlum soʻzni u qoidadan ajratmak.

2- chet soʻzlaridan (oʻzbekchaga oʻydirgan taqdirida) buzilishlar mumkin boʻlgʻon “xuquq, hujum, ukrugʻ” kabi mashhur va umumiy xol olgʻon soʻzlarni ajratmak (tabiiy u yangidan olinadurgʻon soʻzlarda asos tutiladi)

Xol shunday ekan bo'sh yerga nega qoidalar ko'paytirish yo'li tutiladi? Tilchilarimiz uchun til ustida qilodurg'on boshqa ishlar tugolib qoldoyda muning ila ish ochiladimi?

Xullaski: lab ohani o'zbek omma tilida yo'qliqq'a to'g'ri yurgan. Hamda u yurush tilda omma orasidan qoynog'on tugallanish – takomil tusindadir. Tugallanishning illatida so'zda yengillik va eshiturda yumshoqliq asosig'a qurilg'ondir.

Uning uchun tilni ommalashdirish asosini qabul qilg'on moyasini quriq nazariyachilikdan uzoqda turg'on kishi yo'qliqqa to'g'ri yurgon lab ohanini qoytadon tirgazuvga yon berolmaydi.

*Miyon Buzruk "Til imlo masalalari".  
(maqola va materiallar to'plami).  
Toshkent, 1929. 238-248-betlar*